Xivaning qadimiy minoralari o’rganilmoqda

Qadimiy Xorazm me’morchiligida alohida ahamiyatga ega bo’lgan Xiva minoralarining qurilish usullari, me’morchilik kompozitsiyasi, qurilish ashyolari, bunyod etilish tarixi, yer ustki va yer ostki qismlarining qurilmalari ilmiy izchillikda hamda chuqur tahlil qilinmoqda. Aynan, Xorazm Ma’mun akademiyasi doktoranti Kahramon Saburovning “Jahonga mashhur Xiva minoralarining barqarorligini ta’minlash mezonlarini ishlab chiqish” ilmiy mavzusi doirasida qadimiy minoralar tiklashning umumiy qonuniyatlari, turli indikatorlari bo’yicha o’ziga xos xususiyatlari o’rganilmoqda.

Xorazm Ma’mun akademiyasining “Janubiy Orolbo’yi tarixiy me’moriy yodgorliklarining qurilish

materiallarini sinash va ta’mirlash laboratoriyasi” ilmiy xodimlari tomonidan shu kunlarda Xiva shahrining qadimiy minoralarining (Bikajon Bika madrasasi, Shayx Mavlon bobo, Shohimardon majmuasi) yer ostki va yer ustki konstruktiv holatlarini monitoring qilish ishlari olib borilmoqda. Minoralar texnik holati bo’yicha innovatsion ma’lumotlar bazasi shakllantirildi, aynan baza bo’yicha zamonaviy “Auto CAD” dasturida 3 o’lchamli obyektni “3 ds Max” dasturi orqali yaratish bo’yicha amaliy ishlar yakunlanmoqda.

Xivadagi qaysi tarixiy obida bo’yicha ilmiy tadqiqot o’tkazilmasin parallel ravishda tadqiqotchi Bekzod Xudayberganovning ham yog’och konstruktsiyalarning turli xususiyatlarini o’rganishga doir monitoring kuzatuv ishlari ham davom etmoqda.